
MUROJAATGA MUNOSABAT – 2

Ijtimoiy tarmoqlarda “ Navbatdagi murojaat Rishton tumani, Yuqori Avazboy MFYdan. Saylov masalasidagi haqsizliklar haqida bo’ldi. Murojaatchilarning ta’kidlashicha, amaldagi rais qayta saylanish uchun barcha tanish-bilishlarini saylovchilar ro’yxatiga kirgizgan ekan...” nomli murojaat yuzasidan Fuqarolar yig’inlari raislari (oqsoqollari) sayloviga tayyorgarlik ko’rish va uni o’tkazish hamda saylovni tashkil etishga ko’maklashuvchi tuman komissiyasi quyidagilarni ma’lum qiladi. Fuqarolar yig’ini raisi (oqsoqoli) saylovi to’g’risida qonunning 14 -moddasiga asosan tuzilgan fuqarolar yig’ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o’tkazish bo’yicha ishchi guruhi tomonidan o’z vakolatlari doirasida Qonunning 15- moddasiga muvofiq, hovlilar, uylar, ko’chalar aholisining fuqarolar vakillari saylovi bo’yicha umumiy yig’ilishlarini tashkil etaishi va o’tkazishi;hovlilar, uylar, ko’chalar aholisi umumiy yig’ilishining ishtirokchilarini ro’yxatga oladi hamda fuqarolarning saylangan vakillari haqidagi ma’lumotlarni ko’rsatgan holda aholining umumiy yig’ilishi bayonnomasini tuzishi;tegishli komissiyaga taqdim etish uchun fuqarolar yig’ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlar bo’yicha takliflarni tegishli hududda doimiy yashovchi fuqarolarning fikrini inobatga olgan holda tayyorlashi;fuqarolar yig’ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o’tkazish masalalari yuzasidan aholi o’rtasida tushuntirish ishlarini olib borishi;fuqarolar yig’ini raisining (oqsoqolining) takroriy saylovi, shuningdek bo’shab qolgan o’rinlarga fuqarolar yig’ini raisi (oqsoqoli) saylovi o’tkazilishini tashkil etishi;fuqarolar yig’ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o’tkazish masalalari bo’yicha fuqarolarning murojaatlarini ko’rib chiqishi belgilangan. Shunga muvofiq Yuqori Avazboy MFYda ham ishchi guruhi tashkil etilib, fuqarolar yig’ini raisi (oqsoqoli) saylovida ovoz berish mumkin bo’lgan fuqarolar ro’yxati shakllantirilgan. Ushbu ro’yxatga kimlarni kiritish ushbu mahalladagi ishchi guruhi tomonidan belgilanadi. Shu o’rinda OAV vakillari, jurnalistlar va blogerlarga fuqarolar yig’ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o’tkazish masalalari bo’yicha kelib tushgan murojaatlar yuzasidan Fuqarolar yig’inlari raislari (oqsoqollari) sayloviga tayyorgarlik ko’rish va uni o’tkazish hamda saylovni tashkil etishga ko’maklashuvchi tuman komissiyasi raisi yoki uning o’rinbosarlari bilan bog’lanish mumkinligini eslatib o’tamiz.

Komissiya raisi:

Mamajonov Mahmudjon Mirzasharipovich – +998 (90) 407 44 40

Komissiya raisi o’rinbosarlari:

Mamadaliev Qahramon Tojiboevich – +998 (90) 274 19 00

Xojixonov Xudoyorxon Kimsanxonovich – +998 (90) 407 57 00

2022-05-16 16:59:15